



DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19906653>

Davolash ishi yo'nalishi talabalarini klinik jarayonlarga tayyorlash metodikasi bo'yicha tajriba-sinov ishlari mazmuni va amalga oshirish bosqichlari

Ismailov Oybek Abdurasulovich –

Andijon davlat tibbiyot instituti,

“Anesteziologiya reanimatologiya va tez tibbiy yordam” kafedrası
mustaqil izlanuvchisi

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-7349-8773>

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada davolash ishi yo'nalishi talabalarini klinik jarayonlarga tayyorlash metodikasini amaliyotga joriy etish jarayonida olib borilgan tajriba-sinov ishlarining mazmuni, tashkiliy tuzilmasi hamda amalga oshirish bosqichlari ilmiy-pedagogik jihatdan kompleks tahlil qilingan. Shuningdek, tajriba-sinov jarayonida qo'llanilgan pedagogik yondashuvlar, baholash mezonlari va indikatorlari asosida metodikaning samaradorligi aniqlanib, talabalarning klinik kompetensiyalarini shakllantirishdagi natijadorligi asoslab berilgan. Olingan natijalar asosida metodikaning amaliy ahamiyati ochib berilib, uni tibbiy ta'lim jarayoniga joriy etishning ustuvor yo'nalishlari belgilangan.*

***Kalit so'zlar:** klinik tayyorgarlik, metodika, tibbiy ta'lim, klinik kompetensiya, diagnostika, monitoring, baholash mezonlari, amaliy ko'nikmalar.*

Содержание и этапы реализации опытно-экспериментальной работы по методике подготовки студентов направления «Лечебное дело» к клиническим процессам

***Аннотация.** В данной статье научно-педагогически комплексно проанализированы содержание, организационная структура и этапы реализации опытно-экспериментальной работы, проведённой в процессе внедрения методики подготовки студентов направления «Лечебное дело» к клиническим процессам. Также на основе применённых в ходе эксперимента педагогических подходов, критериев и индикаторов оценки определена эффективность методики и обоснована её результативность в формировании клинических компетенций*

студентов. На основе полученных результатов раскрыта практическая значимость методики и определены приоритетные направления её внедрения в систему медицинского образования.

Ключевые слова: клиническая подготовка, методика, медицинское образование, клиническая компетенция, диагностика, мониторинг, критерии оценки, практические навыки.

Content and implementation stages of experimental research on the methodology for preparing students of the “General Medicine” program for clinical processes

Annotation. *This article provides a comprehensive scientific and pedagogical analysis of the content, organizational structure, and implementation stages of experimental research conducted during the introduction of a methodology for preparing students of the “General Medicine” program for clinical processes. In addition, based on the pedagogical approaches, assessment criteria, and indicators applied during the experiment, the effectiveness of the methodology is determined and its impact on the formation of students’ clinical competencies is substantiated. The results obtained reveal the practical significance of the methodology and identify priority directions for its implementation in the medical education system.*

Keywords: *clinical training, methodology, medical education, clinical competence, diagnostics, monitoring, assessment criteria, practical skills.*

KIRISH

Zamonaviy tibbiy ta'lim tizimida ishlab chiqilayotgan har qanday pedagogik metodikaning samaradorligi, eng avvalo, uning amaliy natijadorligi bilan belgilanadi. Ayniqsa, Davolash ishi yo'nalishi talabalarini real klinik jarayonlarga tayyorlash jarayoni yuqori darajadagi kasbiy kompetensiyalarni talab etishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan innovatsion yondashuvlarning, xususan, EPA (Entrustable Professional Activities) texnologiyasiga asoslangan metodikaning amaliy samaradorligini ilmiy asosda tekshirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolada Davolash ishi yo'nalishi talabalarini klinik jarayonlarga tayyorlashga qaratilgan metodikaning tajriba-sinov ishlari orqali sinovdan o'tkazilishi, uning natijadorligini aniqlash hamda olingan natijalarni ilmiy tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda metodikaning amaliyotda qo'llanish jarayoni, tashkil etish bosqichlari hamda samaradorlik ko'rsatkichlari izchil yoritilib, tajriba-sinov ishlari asosida uning pedagogik ahamiyati asoslab beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tibbiy ta'limda talabalarni klinik jarayonlarga tayyorlash muammosi so'nggi yillarda kompetensiyaviy yondashuv doirasida keng o'rganilmoqda. Ilmiy manbalarda (L. ten Cate va boshqalar) EPA (Entrustable Professional Activities) konsepsiyasi talabalarni real klinik faoliyatga bosqichma-bosqich tayyorlashning samarali modeli sifatida e'tirof etiladi. Ushbu yondashuvda nazariy bilimlar amaliy faoliyat bilan integratsiyalashib, talabaning mustaqil ishlash darajasi ishonch (entrustment) mezonlari asosida baholanadi.

Mahalliy va xorijiy tadqiqotlarda klinik tayyorgarlikni oshirishda simulyatsion ta'lim, amaliy mashg'ulotlar va refleksiv yondashuv muhim omil sifatida ko'rsatilgan. Biroq ko'plab tadqiqotlarda talabalarning klinik faoliyatga tayyorgarligini tizimli baholash hamda

ularni mustaqil faoliyatga bosqichma-bosqich o'tkazish mexanizmlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shu nuqtai nazardan, EPA texnologiyasi asosidagi metodikani amaliyotda sinovdan o'tkazish va uning samaradorligini aniqlash dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi. Davolash ishi yo'nalishi talabalarini klinik jarayonlarga tayyorlash metodikasining samaradorligini aniqlash uchun kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Nazariy metodlar asosida ilmiy adabiyotlar tahlil qilinib, EPA texnologiyasining metodologik asoslari aniqlashtirildi. Empirik metodlar sifatida pedagogik kuzatuv, diagnostik baholash va klinik vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar qo'llanildi. Shuningdek, tajriba-sinov natijalarini tahlil qilishda matematik-statistik metodlardan (taqqoslash, foiz ko'rsatkichlari, dinamik tahlil) foydalanildi. Ushbu metodlar tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlab, metodikaning amaliy samaradorligini ob'ektiv baholash imkonini berdi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tajriba-sinov ishlarining mazmuni talabalarining klinik holatlarni tahlil qilish, qaror qabul qilish va amaliy harakatlarni bajarish jarayonidagi rivojlanish dinamikasini aniqlashga asoslandi. Anesteziologiya va reanimatologiya fanining murakkab va mas'uliyatli klinik vaziyatlari tajriba-sinovning asosiy obyekti sifatida tanlanib, talabalar faoliyati bosqichma-bosqich kuzatildi va baholandi. Bu esa metodikaning klinik jarayonlarga tayyorlashdagi real pedagogik samaradorligini aniqlash imkonini berdi.

Tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish jarayoni ketma-ket va o'zaro bog'liq bosqichlarda tashkil etildi. Dastlabki bosqichda talabalarining boshlang'ich klinik tayyorgarlik darajasi aniqlanib, mavjud muammolar va rivojlanish ehtiyojlari tahlil qilindi. Keyingi bosqichda EPA texnologiyasi asosida ishlab chiqilgan metodika o'quv jarayoniga joriy etilib, talabalarining klinik vazifalarni bajarish jarayonidagi faoliyati kuzatildi va baholandi. Yakuniy bosqichda esa olingan natijalar tahlil qilinib, metodikaning samaradorligi, talabalarining klinik kompetensiyalaridagi o'zgarishlar va ularning mustaqil klinik faoliyatga tayyorlik darajasi aniqlashtirildi.

Tajriba-sinov obyekti sifatida Andijon davlat tibbiyot instituti, Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti, Urganch davlat tibbiyot universitetining davolash ishi yo'nalishining 486 nafar talabalarini ishtirok etdilar.

Tajriba-sinov ishlari 3 ta bosqichda olib borildi: tayyorgarlik bosqichi, asosiy bosqich va yakuniy (tahliliy) bosqich.

Ushbu oliy ta'lim muassasalarining hududiy, tashkiliy va o'quv jarayoni jihatidan turlicha bo'lishi tajriba-sinov natijalarini turli ta'lim muhitlarida solishtirish, metodikaning universalligini baholash imkonini berdi. Talabalar sonining yetarli darajada keng qamrovli bo'lishi esa klinik jarayonlarga tayyorlash metodikasining samaradorligini statistik va sifat jihatdan tahlil qilish uchun zarur shart-sharoit yaratdi.

Tajriba-sinov ishlarining tayyorgarlik bosqichida talabalarining klinik jarayonlarga tayyorlik darajasi dastlabki diagnostika asosida aniqlandi. Bu bosqichda talabalarining klinik fikrlash, qaror qabul qilish va amaliy harakatlarni bajarishdagi mavjud holati tahlil qilinib, metodik aralashuvni talab qiluvchi muammoli jihatlar belgilandi. Shuningdek, EPA texnologiyasi asosida ishlab chiqilgan metodikaning mazmuni o'quv rejalari va fan dasturlariga moslashtirildi, baholash mezonlari va ko'rsatkichlari aniqlashtirildi. Tayyorgarlik bosqichi tajriba-sinov jarayonining keyingi bosqichlari uchun ilmiy va tashkiliy asos vazifasini bajardi. Asosiy bosqichda EPA texnologiyasi asosida ishlab chiqilgan klinik jarayonlarga tayyorlash metodikasi bevosita o'quv jarayoniga joriy etildi. Bu bosqichda talabalar klinik vaziyatlarga yo'naltirilgan mashg'ulotlarda ishtirok etib, klinik holatlarni tahlil qilish, ustuvor muammolarni aniqlash va asoslangan qarorlar qabul qilishga jalb etildi. Talabalarining faoliyati doimiy pedagogik kuzatuv va oraliq baholashlar orqali monitoring qilinib, ularning klinik kompetensiyalaridagi o'zgarishlar tizimli ravishda qayd

etiladi. Asosiy bosqich metodikaning real ta'lim jarayonidagi ta'sirini aniqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi.

Yakuniy, tahliliy bosqichda esa tajriba-sinov davomida to'plangan ma'lumotlar umumlashtirildi va chuqur tahlil qilindi. Talabalarining boshlang'ich va yakuniy tayyorgarlik darajalari qiyoslab o'rganilib, EPA texnologiyasi asosida olib borilgan mashg'ulotlarning klinik kompetensiyalarni rivojlantirishdagi samaradorligi aniqlashtirildi. Ushbu bosqichda metodikaning kuchli va takomillashtirishni talab etuvchi jihatlari belgilandi hamda olingan natijalar asosida ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Shu tariqa, tajriba-sinov ishlarining uch bosqichda tashkil etilishi tadqiqotning izchilligi, ishonchligi va ilmiy asoslanganligini ta'minladi.

1-jadval

Tajriba sinov va nazorat guruhleri haqida ma'lumot

№	Oliy ta'lim muassasasi nomi	Ta'lim yo'nalishi	Talabalar soni	Talabalar soni	
				Tajriba sinov guruhlarida	Nazorat guruhlarida
1.	Andijon davlat tibbiyot instituti	Davolash ishi	162	80	82
2.	Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti	Davolash ishi	163	81	82
3.	Urganch davlat tibbiyot universiteti	Davolash ishi	161	81	80
Jami:			486	242	244

Jadvaldan ko'rinadiki, Andijon davlat tibbiyot institutida jami 162 nafar talaba ishtirok etib, ulardan 80 nafari tajriba-sinov guruhiga, 82 nafari nazorat guruhiga ajratilgan. Guruhlar o'rtasidagi farq minimal bo'lib, bu omil talabalarining boshlang'ich tayyorgarlik darajasida sezilarli nomutanosiblik yuzaga kelishining oldini oladi. Natijada olingan farqlar aynan metodikaning ta'siri bilan izohlanishiga imkon yaratiladi.

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida 163 nafar talabaning ishtiroki qayd etilgan bo'lib, tajriba-sinov guruhiga 81 nafar, nazorat guruhiga esa 82 nafar talaba jalb etilgan. Bu muassasada ham guruhlar son jihatidan mutanosib tashkil etilgan bo'lib, EPA texnologiyasi asosida olib borilgan mashg'ulotlar natijalarini an'anaviy o'qitish bilan to'g'ridan-to'g'ri solishtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, mazkur institutda talabalarining son jihatdan eng ko'p qamrab olinishi tadqiqot natijalarining umumlashtirish darajasini oshiradi.

Urganch davlat tibbiyot universitetida esa jami 161 nafar talaba ishtirok etib, ulardan 81 nafari tajriba-sinov, 80 nafari nazorat guruhiga ajratilgan. Bu holat tajriba va nazorat guruhleri o'rtasida deyarli to'liq muvozanat saqlanganini ko'rsatadi. Hududiy va tashkiliy jihatdan boshqa ikki muassasadan farq qiluvchi sharoitda ham guruhlarning bir xil nisbatda shakllantirilishi metodikaning turli ta'lim muhitlarida qo'llanish imkoniyatini baholashga xizmat qiladi.

Tajriba-sinov ishlari bo'lajak shifokorlarda klinik tafakkur, diagnostik fikrlash, kommunikativ muloqot va refleksiv yondashuv kompetensiyalarini rivojlantirishni maqsad qilgan bo'lib, ushbu kompetensiyalar klinik jarayonlarga tayyorlikning o'zaro uzviy va ajralmas tarkibiy qismlari sifatida qaraldi. Klinik tafakkurni rivojlantirish jarayonida talabalar klinik belgilarni alohida faktlar sifatida emas, balki patofiziologik jarayonlar bilan bog'liq holda tahlil qilishga o'rgatildi, bu esa diagnostik xatolarning oldini olish va klinik qarorlarning asoslanganligini oshirishga xizmat qildi. Diagnostik fikrlash esa klinik

vaziyatni baholash, muqobil tashxislarni solishtirish va dalillarga tayangan holda optimal qarorni tanlash orqali shakllantirildi.

Tajriba-sinov jarayonida kommunikativ muloqot kompetensiyasi alohida ahamiyat kasb etdi, chunki klinik faoliyat samaradorligi ko'p jihatdan shifokorning bemor, hamkasb va tibbiy jamoa bilan to'g'ri muloqot qila olishiga bog'liq. Talabalar klinik muhokamalar, jamoaviy qaror qabul qilish va vaziyatli topshiriqlar orqali o'z fikrini aniq va mantiqiy ifodalash, klinik asoslarni tushuntirish hamda kasbiy muloqot me'yorlariga rioya qilish ko'nikmalarini rivojlantirdilar. Bu jarayon ularning klinik mas'uliyatni anglash va jamoaviy faoliyatga moslashuvchanligini kuchaytirdi. Refleksiv yondashuv kompetensiyasi esa tajriba-sinov ishlarining muhim natijaviy jihatlaridan biri bo'ldi. Talabalar o'z klinik harakatlarini tahlil qilish, qabul qilingan qarorlarning oqibatlarini baholash va kelgusida faoliyatini takomillashtirishga yo'naltirilgan xulosalar chiqarishga o'rgatildi. Natijada refleksiya klinik faoliyatni baholashning tashqi mexanizmi sifatida emas, balki shifokorning ichki professional rivojlanish omili sifatida shakllandi. Shu tariqa, tajriba-sinov ishlari bo'lajak shifokorlarning klinik kompetensiyalarini kompleks rivojlantirib, ularni mustaqil va mas'uliyatli klinik faoliyatga tayyorlashda muhim pedagogik ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi.

Tibbiyot sohasidagi mutaxassis faqat tibbiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish bilangina cheklanmay, balki analitik tafakkur, empatik muloqot, tezkor qaror qabul qilish, kasbiy refleksiya va dalilga asoslangan klinik yondashuv qobiliyatlariga ham ega bo'lishi lozim. Zamonaviy tibbiyot amaliyoti shifokordan nafaqat tashxis qo'yish va davolashni, balki kasallikning patogenezini chuqur tahlil qilish, klinik vaziyatni kompleks baholash va bemor bilan psixologik aloqani to'g'ri yo'lga qo'yishni ham talab etadi. Shu nuqtai nazardan, EPA texnologiyasi asosida tayyorlanayotgan Davolash ishi yo'nalishi talabalarini klinik vaziyatlarni standart algoritmlar doirasidagina emas, balki real amaliyotning o'zgaruvchan va noaniq sharoitlarida tahlil qila oladigan, muqobil yechimlarni solishtirib baholaydigan hamda kasbiy mas'uliyatni anglagan holda ongli qaror qabul qiladigan mutaxassis sifatida shakllanadi. Bunda talabaning klinik faoliyati tashqi nazoratga qaram bo'lmagan, lekin professional me'yorlar va xavfsizlik talablariga qat'iy asoslangan holda rivojlanib boradi. Natijada EPA texnologiyasi Davolash ishi yo'nalishi talabalarini mustaqil klinik faoliyatga izchil o'tkazishni ta'minlovchi samarali pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, tajriba-sinov ishlarida xalqaro ilmiy g'oyalar va ilg'or xorijiy tajribalar asosida bo'lajak shifokorlarning klinik jarayonlarga tayyorlashni EPA texnologiyasi asosida takomillashtirishga xizmat qiladigan zamonaviy metodik yondashuvlar chuqur tahlil qilindi. Xususan, klinik kompetensiyalarni faoliyat orqali shakllantirish, bosqichma-bosqich ishonch asosida klinik vazifalarni topshirish va baholashga yo'naltirilgan yondashuvlarning pedagogik mohiyati o'rganildi.

Ushbu jarayonda EPA texnologiyasi klinik tayyorgarlikni faqat bilim va ko'nikmalar yig'indisi sifatida emas, balki shaxsiy mas'uliyat, kasbiy ong va klinik mustaqillikning izchil rivojlanishi sifatida talqin etilishi bilan ajralib turishi aniqlandi. EPA texnologiyasi talabalarning klinik faoliyatga nisbatan ishonchini oshiradi, stressli vaziyatlarda qaror qabul qilish barqarorligini mustahkamlaydi va kasbiy o'zini anglash jarayonini tezlashtiradi. Talabaning o'z tayyorgarlik darajasini anglab borishi, qaysi klinik vazifalarni mustaqil, qaysilarini esa nazorat ostida bajarishi mumkinligini tushunishi uning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi. Bu esa klinik tafakkur va refleksiv yondashuvning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA

Umuman olganda, EPA texnologiyasi asosida Davolash ishi yo'nalishi talabalarini klinik jarayonlarga tayyorlash metodikasi tibbiy ta'lim amaliyotida samarali qo'llanilishi mumkin bo'lgan ilmiy asoslangan pedagogik yechim ekanini ko'rsatdi. Mazkur metodika

talabalarni mustaqil, mas'uliyatli va xavfsiz klinik faoliyatga tayyorlashga xizmat qilib, ularning real tibbiy amaliyotga moslashuvini yengillashtiradi va kasbiy tayyorgarligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bondarenko O.V. Klinicheskoe myshlenie vracha: pedagogicheskie osnovy formirovaniya // Meditsinskoe obrazovanie i professionalnoe razvitie. – 2019. – №2. – P. 34–41.
2. Al-Eraky M.M., Marei H.F. A fresh look at Miller's pyramid: assessment at the "Does" level in workplace-based practice // Medical Teacher. – 2016. – 38(12). – P. 1257–1267.
3. Shifrin G.A. Klinicheskoe obuchenie i otsenka prakticheskikh navykov // Meditsinskoe obrazovanie. – 2018. – №1. – P. 12–18.
4. O'Donnell J.M., Karanicolas P.J. (eds.). Patient Safety in Surgery and Critical Care (manual). – Cham: Springer, 2020. – 420 p.
5. Kaye A.D., Urman R.D., Vadivelu N. (eds.). Essentials of Regional Anesthesia (textbook). – Cham: Springer, 2018. – 640 p.